

INGLIZ VA O'ZBEK TILIDAGI IDIOMALAR VA O'XSHATMALAR TARJIMASIDA ZOONIMLAR SEMANTIKASI

Xo'jamurotova Feruza Ahmadovna

Abdulloyeva Shohida Odilovna

Guliston akademik litseyi ingliz tili fani o'qituvchilari.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13845916>

Annotatsiya. Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tilidagi idiomalar va o'xshatmalar tarjimasida zoonimlar semantikasi masalasiga alohida to'xtalib o'tilgan. Maqola davomida qiyos usulidan foydalananilgan holda ingliz va o'zbek tillarida misollar keltirilgan.

Kalit so'zlar: idiomalar va o'xshatmalar, zoonimlar semantikasi, tarjima muammolari, jonivor nomlari.

SEMANTICS OF ZOONYMS IN THE TRANSLATION OF IDIOMS AND SIMILES IN ENGLISH AND UZBEK

Abstract. This article focuses on the semantics of zoonyms in the translation of idioms and similes in English and Uzbek. Throughout the article, examples are given in English and Uzbek using the comparison method.

Key words: idioms and similes, semantics of zoonyms, translation problems, animal names.

СЕМАНТИКА ЗООНИМОВ В ПЕРЕВОДЕ ИДИОМ И СРАВНЕНИЙ НА АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация. В данной статье рассматривается семантика зоонимов при переводе идиом и сравнений на английском и узбекском языках. На протяжении всей статьи приводятся примеры на английском и узбекском языках методом сравнения.

Ключевые слова: идиомы и сравнения, семантика зоонимов, проблемы перевода, названия животных.

O'zbek xalqining kundalik hayotida jonivorlar juda katta ahamiyatga ega. Qadimgi turkiy xalqlarda ham jonivirlarni muqaddas bilishgan, ularga e`tiqod qilishgan. Aynan shu sababdan bo'lsa kerak, tilimizda hayvon nomlari bilan bog'liq bo'lgan iboralar, so'zlar ko'pchilikni tashkil qiladi.

Qadimgi xalqlarda hayvonlarning turiga qarab, xalqning ijtimoiy ahvoli belgilangan.

Turkiy xalqlarning eng qadimgi yozma obidalari sifatida qaraladigan O'rxun-Enasoy obidalarida hayvon nomlarining ishlatalishi shu jihatdan katta ahamiyatga ega. Mazkur bitiktoshlarda zoonimlar hajman ko'pchilikni tashkil etmasa-da, ular orqali anglashilayotgan

ma`nolar o'sha davr xalqi hayoti, ijtimoiy ahvolini yoritishda muhim hisoblanadi. Ba`zi o`rinlarda bitiktoshlarda jonivorlar nomlari bugungi ma`nosiga aynan o'xshamaydi. Masalan, Kultegin va Bilgaxoqon bitiktoshlarida "Tuğu baliq" degan iboralar ko'p qo'llangan. Ammo bu o`rinlarda baliq so'zi hayvon nomi sifatida emas, balki shahar, qal'a ma`nolarida ishlataligan. To'nyuquq bitigtoshida ham bunday holatlar uchraydi, biroq To'nyuquq bitigtoshida hayvon nomlari nisbatan xalqning ijtimoiy ahvoli, aholining ma'rifiy holatini ifodalash uchun qo'llanilgan [Mahmudov N., Rahmonov N. 2005, 131-132].

O'zbek adabiyotida zoonimlar qadimgi bitiklarda qo'llanganligini aytib o'tdik. Sababi o'zbek xalqi qadimdan hayvonlarni xonakilashtirgan, chorvachilik bilan shug'ullangan, qir-adirlarda yilqi boqishgan. Chorvachilikda asosan qora mol, sigir qo'y va sigir singari uy hayvonlari kishilarning to'q hayot kechirishlariga hizmat qilgan bo'lsa, it uy-o'choq qo'riqchisi, tulki, bo'ri va shoqollar kishilarning halovatini o'g'irlagan. Shu kabi omillar zoonimlarning tilimiz va adabiyotimizda keng qo'llanishiga sabab bo'lgan. Biz yuqorida ingliz tilidagi zoonim frazeologizmlarni tahlil qilganimizda uch asosiy hayvon – it ot va mushuk bilan bog'liq frazeologizmlarning nisbatan ko'p ekanligiga guvoh bo'lgan edik. Dastlab o'zbek tilidagi ana shu uch zoonim bilan bog'liq o'xshatmalarni tahlilga tortsak:

1. It – o'zbek tilida ham ancha keng qo'llaniluvchi zoonim hisoblanadi. Sababi yuqoridagi boblarda aytganimizdek it doim o'z egasiga vafodorlik bilan hizmat qilgan. SHu sababdan tilimizda bu zoonim bilan bog'liq: it vafo – xotin jafo maqoli paydo bo'lgan bo'lsa ajab emas. Ingliz tilida zoonimlarni frazeologizmlar qo'llash orqali inson fe'l-atvoriga muqoyasa qilish ko'p uchrasa, o'zbek adabiyotida to'g'ridan to'g'ri qiyoslash (-dek, -day) suffikslarini it zoonimiga qo'shish orqali yasalgan bu hayvonga xos bo'lgan vafodorlik hislatini ulug'lovchi o'xshatmalarni ko'plab uchratish mumkin (**Eslatma*- tahlillar uchun o'zbek adabiyotidan olingan misollar - "Низомиддин Маҳмудов. Ўзбек тили ўхшатмаларининг изоҳли лугати, Тошкент, 2013**" kitobidan olindi):

Bu o'rinda it zoonimi ijobiy muqoyasa vositasi bo'lsa, ba'zi o'xshatmalarda itning fiziologiyasiga oid salbiy jihatlar vovullah, akkillash kabilalar kishining fe'l-atvoriga qiyoslanaladi. Bu kabi salbiy emotsiyal muqoyasalar nafaqat o'zbek balki ingliz tilida ham mavjud. Quyida it – dog zoonimining salbiy emotsiada qo'llanishini qiyoslaymiz:

Ingliz tilida:

Dog eats dog (It itni eydi) Itning qo'pol, gapga ko'nmaydigan fe'l atvoriga, bir biri bilan urushib yuradigan kishilarga ishora.

- **Barking dogs seldom bite** (Akkillagan it ba'zida qopar)

Frazeologizmlarda ishlatalilgan eng faol zoonimlar uchligiga kiruvchi it o'zbek va ingliz tillaridagi ideoma va o'xshatmalarda keng qo'llanadi. Quyida ularning semantikasini qiyoslaymiz:

O'zbek tilida:

Qopmoq, talamoq. Qo'pol, dag'al gapirmok, jerkib gapirib, ko'nglini og'ritmok.

Zohid shoortabiat ham emas, bu ayolning ko'nglini ovlash niyati ham yo'k. Bundan tashqari, xonasiga kiruvchini **it kabi qopadigan** rahbaru rahbarchalarga azaldan tobu toqati yuk (T. Malik. SHaytanat). Qiz bolaning yomoni tushib kolsa, yor-yor, yomon **itday** betingdan *qopib olar*, yor-yor (Ok olma, kizil olma). Idora xodimlariga achinaman-da. Ba'zan duch kelganni **itday qopadi** (T. Malik. SHaytanat). Echkisiga sal tekkanimga **itday taladi** (A. Obidjon. Serkaxonim).

Nohaq odam **itday akillasa** ham, maqsadiga erisha olmaydi (So'zlashuvdan). Ana, Berdi tajang **itday irillab**, nima bo'ldi (N. Norkobilov. Tog' odami). Odamning tabiati qiziq bir-birini ko'rmasa sog'inadi, ko'rishganida **itdek irillarydi** (I. Zoyir. Qismat uchi). Arzimas bir jondorni deb **itday irillashmanglar!** Uyat buladi-ya! (N. Norkobilov. G'animlar).

Yugurmoq. Biror narsa umidida tinimsiz harakatda bulmoq. Ul kishim odamlar yillab **itdek yugurib** topgan boylikni mehmonxonasida o'tirib, hisob-kitob bilan topadi (N. Kobul Buyuk Turon amiri yohud aql va qilich). Besh ming so'm uchun kinochilarining ketidan **itday** tilini chiqarib, *yuguradigan* ahmoq yuk! Ana, yoshlar bor, ushalar qilsin! (M. M. Do'st. Lolazor) Na halol, na harom neligin bilmay, Ikkisin ortidai **itdek yugurdik** (A. Mahkam. Iymon deb...).

Izg'imoq, sanqimoq, daydimoq, tentiramoq. Har erda biron muntazamsizlik bilan kezmok.

Odam hakida.

Shayboniyning navkarlari **itday izg'ishib** yuribdi (Oysuluv). Etim koldim yoshligimda men xam otamdan, Odamlarnshi eshigida *sangidim* **itday** (A. Oripov. Jannatga yul). Har kuchada **it kabi Daydishimnnng** sababi - Izlaringni sog'indim (U. Hamdam. Sabo va Samandar). SHaharga borib ukiyapman, deb barchani aldab, bozorda **itdek sang'ib yurish** sharmandalik emasmi? (Ch. Aytmatov. Bolaligim). Indamagin kalga - o'zi kelar holga, deydilar. Otangizga rahmat. Ana, ko'chada **itday tentirab** koldi (T. Murod. Ot kishnagan oqshom). Sirasini aytganda, cho'lda **itday izg'ish** unga umuman yoqmaydi (N. Norkobilov. Fanimlar).

Ergashmoq. Birovning ortidan astoydil, ammo anchayin beqadr holatda doimo yurmok.

Faqat sen kolgan eding, mana, sen ham menikisan, endi tamomsan, ortimdan **itday ergashib** yuraverasan, endi o'z holingcha kun kechirolmaysan (B. M. Ali. Ko'kti'nilar). Mana yarim yildirki, **itdek** uning orqasidan *ergashib* yuribdi (N. Qobul. Buyuk Turon amiri yohud aql va qilich). Bir munkir u zotni taklif etib, uyiga qadar olib boradi. Eshigiga etgach: «Tomog'ing uchun bir **itdek** menga *ergashib* kelding, uyimda hech vaqo yuk», deb hakorat! qila-qila haydadi (T. Malik. Kelinlar daftariga). Yuk, yanglishding, men SHosalim emasman! Senga **itdek ergashib**

yurgan, bir paytlari obruyingni saqlab qolish uchun tuni bilan mijja qoqmagan, sadoqat bilan hizmatingni kilib, oxir-okibat qadri-qimmati toptalgan soyaman (F. Tilovat. Qora quzgun).

Ishlamoq, mehnat qilmoq, xizmat qilmoq. Ular-kolariga Qaramay ishlamok, butun kuchini bermok, har kanday ishni minnatsiz bajarmok. Savil qog‘ur chorak bug‘doyni o‘n baravar kilib qaytardim, o‘n yildan beri **itday ishlab** ham berdim, yana gunox, menda ekan-da, Taqsir! (M. Ismoiliy. Farg‘ona tong otguncha). Bu johil, omi **qavmga** Yaratgan ko‘mak etmasa, o‘zi **itdek ishlamasa**, mening elib yugurganimdan foyda yo‘k derdi har gapida (N. Qobul. Buyuk To‘ron amiri yohud akl va qilich). **Itdek mehnat qilib**, obro‘- e’tibor qozonib yurgan paytingda kimniigdir g‘alamisligi, hasadgo‘yligi, ko‘ngli qoraligi tufayli ozor chekib... yurgingingda birdan... ishiig yurishib ketsa, bu orziqib kutilgan ulkan **baxtni** yuragingga sig‘dirib ololmaysan, kishi (N. Karimov. Mirtemir). Ko‘ngling bo‘lsa, uylan shunga. Yaxshi narsa lekin, (**uy** qolgan-u, bo‘y qizlarga bo‘y bermaydi. Uylan, **itday xizmatingni. qiladi** (M. M. Do‘st. Lolazor).

Charchamoq, o‘ynalmoq. O‘lar xolatga keladigan darajada xorimok, o‘ta mushkul ahvolga tushmoq.

Kurmaysizmi, chaqalok tinchimayapti. O‘zim **itday charchaganman** (U. Hoshimov. Urushning so‘nggi qurbanoni). Bultur o‘zimni ham **itday qiyaldik**, bola-chaqamiz ham bo‘lganicha bo‘ldi (M. Ismoiliy. Farg‘ona tong otguncha). **Itday charchaganmi** uchun yumshoq; o‘ringa tappa tashlagimiz kelardi (X. Sulton. Boburiynoma). Ko‘ksaroydan **itday charchab** qaytgan amir Sultoi Jondor to‘sakka kirib, endi ko‘zi ilingan ham edi, kimdir elkasidan sekin turtdi (O. Yokubov. Ulubek hazinasi).

Quturish.. Haddan ortiq jahlgan minmoq, juda ham haddi dan oshmoq.

Avaz xali bundan beshbattar achchiq; she’rlar bitishini, bu she’rlari xonni, xon valiahdini, arkoni davlatni bexalovt etib, **itdek quturtirib** qo‘yishiii bilmaydi (S. Siyoev. Yorug‘lik). Qonga tashna **itday quturib**, Uchraganga changal soladi (T. Jo‘ra. SHamol).

Yashamoq, turmush kechirmoq. Nihoyatda nochor, qiyin, aftoda ahvolda umrguzaronlik qilmoq. Bu erda na ilmu fanni, na san’atni, na qo‘sinqi tushunishadi; hammalari ota-bobolaridan qolgan kataklarda **itday turmush kechirishadi** (N. Eshonqul. Momoqo‘sinqi).

Ichmoq. Orqa-oldiga qaramay, me’yordan juda ortiq; darajada, ko‘p spirtli ichimlik iste’mol qilmoq.

Bir kuni **itdek ichib** kelganida, cholim rahmatli kattiq koyi-di, juda qattiq koyidi (X. Sultonov. Ajoyib kunlarning birida). Oldin unaqa emasdi, hozir **itdek ichadi** (U. Xoshimov Dunyoning ishlari). Azonlab borib Mansur akadan uzr so‘radim: «Men ushanda ahmoqliq qilgan ekanman. **Itday ichib**, nima deganimni bilmabman...» (S. Siyoev. Oy borib, omon keling). Oxo, bu kishini qarang-a?.. **Itday ichib olib**, tuhmat qiladi. Endi shunisi etmay turgan edi (A. Juraev.

Qaytim).

Demak, it zoonimi o‘zbek tilidagi olam milliy manzarasida quyidagicha konseptual manzara xosil qiladi:

1. Insonga bo‘lgan munosabati: *sadoqat, do ‘stlik, holis xizmat*, ergashish, vafodorlik;
2. Fe’li: *yuvvosh, quturmoq, qopmoq, akkillamoq, irillamoq, to ‘satdan tashlanmoq*;
3. Yashash tarzi: *chor nochor kun kechirmoq, qiynalmoq*;
4. Harakati: *charchamoq, izg ‘imoq, sanqimoq, daydimoq, tentiramoq, bo ‘kib ichmoq*;

Keyingi ikki tilda ham uchrovchi zoonim bu mushuk bo’lib, Mushuk ingliz tilida asosan sinchkovlik, qiziquvchanlik kabi hislatlari uchun frazeologizmlarda keng qo‘llaniladi:

- **Care killed a cat** (tashvish mushukni o’ldirdi)
- **A cat has nine lives** (mushukni 9 ta joni bor)
- **Curiosity killed the cat** - (sinchkovlik, qiziquvchanlik mushukni xam o’ldiradi)
- **To live cat and dog life** – (it mushuk bo’lib yashash)

Ma‘lumki, it va mushuklar sevimli uy jonivorlari hisoblanib, har bir etnos lisoniy tasvirida it va mushuk antitetik (antitetika yunoncha antitetikos so‘zidan olingan bo‘lib, qarama-qarshilik ma‘nosini anglatadi) leksik birlik sifatida frazeologik iboralarda, paremalarda polisemik maydonni hosil qiladi [Baxronova 2015, 92]. Bu hayvonlar iboralarda o‘z belgi va xususiyatlaridan uzoqlashib, nafaqat to‘rt oyoqli sut emizuvchilar guruhini, balki boshqa sinfga kiruvchi konkret ob‘ektlarni, hattoki insonlarni ifodalab keladi. Mushuk zoonimining epchil va chaqqonligi o‘zbek tilidagi badiiy asarlarda ham uchraydi: Akbarali **mushukdek sapchib** yulakka borib koldi. Orkasiga burilib karadi (S. Ahmad. Qirq besh kun). Bunga sabab, yoshlik chog‘larida, xali «karate», «ushu» degan gaplar yuk paytida Kesak mushtlashguday bulsa **mushukday sapchib**, uch-to‘rt davangilga bas kela olardi (T. Malik. Shaytanat). Yana bir ayol jon **achchig‘ida mushukdek sapchib**, boshka mug‘ulning tomog‘iga yopishdi. (Mirmuhsin. Temur Malik). So‘ng taraqlab ochildi eshik, Burun tiqdi uyga avtomat. So‘ng bir **sakrab misoli mushuk**, Ichkariga **kirdi uch** soldat (H.Sharipov. Bir savol). Ikkimiz bir vaktda Mushukday olmaga *tashlanamiz* (A. Ko‘chimov. Bir juft olma).

Mushukning **sharpasiz, tovushsiz, pisib yurishi va ehtiyyotkorligi** ham odamning hatti harakatiga (so‘z birikmasi tarzida) muqoyasa qilinadi:

Hovli betida yurgan Abdushukur maxdum ko‘cha eshigi tagidagi oyok; sharpasini sezib, maxsy-kalishda **mushukday tovushsiz** qadam bosib kelib, eshikni ochdi (Y. Sulaymon. Armon).

Yarim soatlardan so‘ng xujraga **mushukday sharpasiz, sassiz** kirib bordim (N. Eshonkul. Qora kitob). Oldinda chirok; tutgan onasi, orqasida charm paltosining o‘ng cho‘ntagiga qo‘l solgan, **mushukdek** ehtiyyotkorlik bilan qadam bosayotgan shapkali... (O‘ .Hoshimov. Tushda kechgan umrlar). Aksariy amirlar ila sizning otingizdan so‘zlashib, ishni bitirib kuyg‘onmen, -

dedi **mushukdek pusib** Berdibekning oldiga etib borganda Tug‘libiy (**N. Kobul**. Buyuk To‘ron amiri yoxud akl va kilich). Jamshid? - **Asadbek** shunday deb qaddini sal ko‘tardi. - Nega **mushukka o‘xshab pisib yuribsan?** (T. Malik. Shaytanat). To‘raqul butalar **tagida mushukdek sharpasiz yurar**, mevalarni ko‘llari va xatto lablari bilan uzib olardi (A. Kuchimov. Baland tog‘lar ostida). Mushukning yalab yulqab suykalishi esa ko‘pincha adabiyotimizda ibosiz ayollarning o‘zini tutishiga ham muqoyasa qilinadi:

Demak, yuqoridagi misollar asnosida mushuk zoonimi o‘zbek tilidagi olam milliy manzarasida quyidagicha konseptosfera xosil qiladi:

1. Insonga bo‘lgan munosabati: *ijobiy, yoqimtoy,*
2. Fe‘li: *muloyim, bezovta,*
3. Yashash tarzi: *uy, hovli, ko‘cha, ombor ;*
4. Harakati: *sapchimoq, sakramoq, pisib yurmoq, sharpasiz yurmoq, suykaladi, sichqon tutadi,*
5. *Odamning mushukka munosabati: erkalaydi, boqadi, silaydi;*

Ingliz tilida mushuk zoonimi qo‘llangan idiomalarni ko‘rib chiqamiz:

as conceited barber’s cat – sartaroshning erka(o‘ziga ishongan) mushugidek. My friend became as conceited as a barber’s cat after she won at school – mak tabda sovrindor bo‘lgandan keyin dugonam sartaroshning erka mushugiga aylandi. **as weak as a kitten** – mushuk bolasidek nimjon – The girl was as weaken as kitten cannot carry the books; **a cat nap** – mizg’ib olish. Kun davomidagi qisqa uyqu- (uzb. Qush uyqusi) I had cat nap during the afternoon so I would feel refreshed in the evening. **cat burglar** – devordan tushib o‘g’rlikka kiradigan o‘g’ri. A cat burglar entered our apartment and stole our television. Mushuk o‘gri uyimizga devordan oshib tushib televizorimizni o‘g’irlabdi. **cat gets one’s tongue** – tiliga mushuk kirib qolmoq. Uyalganidan gapira olmaslik. The cat got the woman’s tongue and she could not say anything at all. - Ayolning og’ziga mushuk kirib olgandek hech narsa gapira olmadi. Shu o‘rinda o‘zbek tiliga tarjima jarayonida “og’ziga talqon solib olgandek”. **a cat on hot tin roof** – temir shipdagli mushuk. O‘ta aktiv harakat qilish. A boy was jumping around like a cat on a hot tin roof and we could not make – bola temir tomdagi mushukday sakrayotga edi. **a copycat** - birovning ishidan ko‘chiruvchi kishi.

The boy is a copycat and copies the other student’s work. Bola ko‘chirmachi u talabalarning ishidan nusxa ko‘chiradi. **grin like a Cheshire cat** – Gheshir mushugiga o‘xshab shaqshayish. The little boy was grinning like a Cheshire cat when he entered the room; **let the cat out of the bag** – sir saqlanadigan narsani aytib qo‘ymoq. O‘qituvchi maktabni yopish rejasini aytdi; **look like something the cat dragged in** – mushuk tirnab tashlagan narsaga o‘xshan qolmoq.

I was very tired and looked like the cat dragged in- juda charchaganimdan huddi mushuk tirnab

tashlaganga o'xshab qolgan edim. **look like the cat that swallowed the canary - to'tiqushni yutrgan mushukdek.** Bir narsadan mammun qiyofada bo'lish. You look like a cat swallowed canary.**to the put cat among the pigeons – mushukni kabutarlar orasiga qo'yib yuborish** Kimnidir noxush holatga quyish. – Sending young supervisor among angry workers was like putting the cat amoung pigeons. Yosh raxbarni jaxli chiqqan ishchilarning oldiga yuborish, kabutarlarning orasiga mushukni qo'yib yuborgandek.

Demak, mushuk zoonimi ingliz tilidagi olam milliy manzarasida quyidagicha konseptosfera xosil qiladi:

1. Insonga bo'lган munosabati: suykalmoq (rubbing); shaqshaymoq (griin)
2. Fe'li: ayyor (copy cat); uy qushlari uchun havfli:
3. Yashash tarzi: uy, shift, xona;
4. Harakati: o'g'rlamoq **cat burglar**, tirnamoq (**dragg**);
5. **Odamning mushukka munosabati: erkalatadi (barber's cat);**

Ingliz idiomalari orasida ba'zi birlari **cat gets one's tongue** – tiliga mushuk kirib qolmoq tarjima jarayonida ekvivalentga almashtirilgani ma'qul. Sababi o'zbek olam milliy manzarasi uchun biroz yet bo'lган bu iboraning tilimizda mum tishlagan, og'ziga talqon solib olgan degan ekivivalentlari mavjudki ularni, qo'llash o'quvching matn mazmunini teranroq tushunishiga yordam beradi.

Uchinchi har ikkala tilda keng qo'llaniluvchi zoonim bu – **ot (horse)** bo'lib, quyida ot tabiatiga xos ba'zi xislatlarning kishi fe'l-atvoriga ko'chishi holatlarini kuzatamiz. **O t g a o ' x s h a b : Pishqirmoq**, g'ayriodatiy ovoz chiqarmok, baqirib, baland ovozda gapirmoq. Yuvinayotganingizda har doim **otga** o'xshab *pishqirasiz*. Karang, kuylagimni jiqla suv qilib yubordingiz, - dedi Muyascap xo'l bo'lган etaklarini ko'rsatib (U. Hoshimov. Dehqonning bir kuni). Qorong'ida Azizzon **otga o'xshab pishqirib** javob qildi (S. Axmad. Qirq besh kun).

Nazarovning burun kataklari kerilib, bezovta **otday pishqirdi** (A. Ko'chimov. Ok kaptarlar oroli). U tinimsiz chayqalar, goh-gohda otga o'xshab *pishsirardi* (S. Ahmad. Ufq). Tursunboy tushundi. Tushindi-yu, yuragi o'rstanib ketganini bildirish uchun otga o'xshab pishqirib ho'rsindi. (**S.Ahmad.**) Sog'lom; tamoman sog'aymok, kasallikdan butunlay forug' bo'lmok;. Odam haqida. «Qalay, ota, sog'ligingiz yaxshimi?»-dedi. «Xudoga shukr, «otdayman, xali do'xtirga ishimiz tushgani yuk», - dedim (S.Siyoev, Oy borib, omon keling). Ko'rib turibsan-ku, otdayman! Sherzod qo'llarini yozdi. - Redaksiyada nima yangiliklar? (O'. Hoshimov. Hyp borki, soya bor). YUring, o'g'lim, - dedi Mahkam)Eshon Tursunaliga, - dard chekindi, erta-indin otday bo'lib ketadi (J. Abdullaxonov. Tarki dunyo). Mana bu kishilar biladilar, o'sha bemor otdek bo'lib ketuvdi, to'g'rimi? (E. A'zam SHovqin). Chinor to'rtgami - beshgami kirdi, chol bo'lsa xali otday (A.

Kuchimov. Kayta tug‘ilgan bola). artib-koidaga buy bermaydigan, ujar, chapdast; noodatiy, nome'yoriy shiddatli harakatlar kilmok. **Bu** minilmagan **asov otdek** yigit qanday adolat qidirayotganini o‘zi bilmasdi (S. Ahmad. Qirq besh kun). Och yulbarsday na’ra tortib kelishing bor! **Asov otday** telbalanib elishiig bor! (Cho‘lpon. Norin daryo). **Asov otday** erkaklarning borar eri - sen (X., Xudoyberdieva. Mukaddas ayol). **O t n i n g k a l l a s i d a y .** Katta. Asosan, odam yuragining botirligi, kurkmasligi, baquvvatligining mubolag‘ali ifodasi uchun; shuningdek, odatdagidan katta qulfga nisbatan; ba’zan boshka ayrim narsalar kattaligining mubolag‘ali ifodasi uchun ham qo‘llanadi. **Otning kallasiday** yuraging bor ekan, bola, - dedi uning elkasiga qo‘lini tashlab (E. Samandar. Sulton Jaloliddin). |1|SH1 ingam **otning kallasiday** bor ekan, Anvar, - dedi Sharofat (M. Xazratkulov. Ta’til kunlari). Bu Salohiddin zargarning do‘konlari **bo‘lib**, ular ham berk, har bir eshikda **otning kallasiday** qulf (O Yoqubov. Ulug‘bek hazinasi). Barot Isroil oyog‘ini qo‘liga olib podvalga yugurib borsa, ko‘radiki, **otning kallasidek** Qulf osilgan (N. Karimov. To‘rg‘ay). U og‘zini ochishga ulgurmay **garaj** ilgagiga **otning kallasidek** kulfni solib sharakshuruk qulfladimda, chorrahadagi do‘konga qarab chopdim (U. Xoshimov. daftар hoshiyasidagi bitiklar). **Ma’lum, tanilgan.** Barchaga ma’lum bo‘lgan odam, fe’l-atvor, narsa va shu kabilar hakida; kuchli salbiy munosabat ifodalanadi. Kaysi bir sud majlisida «yolg‘on guvox,»ga hojat ko‘rilsa Obrezkora tayyor. Uning bu xislati ham hammaga **otning qashqasiday** *ma’lum* (Cho‘lpon. Kecha va kunduz). Ammo kasb-kor tufayli xammaga **otning qashkasnde** *tarilgantri* kam, boshka bir tomonidan xam nom chiqarish kerak (O. Muxtor. Egilgan bosh). Bu - kishloq, notanish kimsa **otning kashqasidek** *ma’lum* (I. Zoyir. Kis mat uchi). Ikki kishi katta ariq ustidagi ko‘priordan o‘tib, tug‘riga ketdi. Saidg‘izi ularning bichimiga karab darrov tanidi: davangirday qaqqaygani - butun rayonga **otning qashqasiday** *tarish* To‘lamat mo‘ylov (S. Anorboev. Oksoy).

Demak, ot zoonimi o‘zbek tilidagi olam milliy manzarasida quyidagicha konseptosfera xosil qiladi:

1. Insonga bo‘lgan munosabati: *hizmatinini qiladi, do’st, sodiq, hamrox;*
2. Fe’li: *favqulotda o’zgaruvchan;*
3. Yashash tarzi: *dala, yaylov, otxona;*
4. Harakati: *soglon (otday)pishqiradi, yuguradi, sakraydi,*
5. ***Odamning otga munosabati:*** *boqadi, yuvib taraydi, yaxshi ko’radi;*

Otning asosan xatti-harakatlari, boshi, pishqirishi va bosh qismidagi qashqasi metaforik ko‘chim sifatida inson fe’li hamda tashqi ko‘rinishiga qiyoslansa, ingliz tilidagi ot bilan bog‘liq idiomalarda uning poygada g‘olib bo‘lishi, undan foydalanish kabilar o‘xshatish ob‘ekti bo‘lib xizmat qilgan: (as)strong as a horse/ox - very strong otday kuchli, The man was as strong as an ox and easily helped us move the sofa. back the wrong horse – yomon otga qaytish. Biror bir muvaffaqiyatga erishmagan

kishiga ishonch bildirish. We backed the wrong horse when we supported the candidate for manager. **beat a dead horse** – allaqachon galaba qozonilgan jangda mag'lubni urishda davom etish. I was beating a dead horse when I was arguing with my boss. **bet on the wrong horse** - to misread the future, to not choose the winning person or solution The man is betting on the wrong horse if he supports the other city in their bid for the Olympic games. **change horses in midstream** – otni oqim vaqtida almashtirish – to make new plans or choose a new leader in an activity that has already begun – allaqachon boshlanib ketgan ish uchun rejalar tuzmoq. They have decided to change lawyers but I told them that they should not change horses in midstream Ular xuquqshunosni almashtirmoqchi bo'ldilar ammo men ularga oqim vaqtি otni almashtirmasliklarini aytdim. **a dark horse** - a candidate who is little known to the general public. Ommaga noma'lum nomzod. The candidate for mayor was a dark horse until he gave some good speeches on TV. Mayyorlikka nomzod televide niyeda interviyu bermaguniga qadar hammaga noma'lum edi.

Har bir zoonimning lingvogeografik hususiyatlarini o'rganib chiqilsa, har bir millat adabiyotida ma'lum zoonimlarning keng qo'llanishida tabiiy sharoit inson va hayvon o'rtasidagi jonli muloqot sabab ekanligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Biz yuqorida mushuk va itni o'zi yashab turgan uyida saqlaydigan, unga alohida mehr bergan inglizlar haqida so'z yuritdik. Ingliz va o'zbek frazeologizmlarida bu ikki zoonimga xos ham ijobiy ham salbiy xislatlar muqoyasasini kuzatish mumkin. Ammo o'zbek xalqi uchun yanada yaqin bir zoonim borki bu qora mol. Molning ijobiy xislatlari bilan birga talaygina salbiy fe'l-atvori borki, bu xislatlar adabiyotda ba'zi kishilarning salbiy illatlariga qiyoslanadi.

Yigitning hamxonalarini mensimaganday bamaylixotir kirishi, o'zidan katta juvonga odobsiz tikilishi Nusratbek- yoqmad: «**Molday befahm ekan**» (S. Nurov. Narvon).

U o'zi – alllaqanday tovlamachi, birovning baxtini ko'rolmaydigan ichi qora, gulni bosgan **molday befahm**, ko'ringan ayolmi-qizmi orqasidan ergashib, sevgi izhor etadigan suyukoyok yo betavfiq qiyofasiga kirayotganday xis qilib, ot ustida kelgan uyqusini qochirmoqchi bo'lgan aravakashday boshini silkidi (Y. Sulaymon. Armon).

Ba'zan bu zoonimning mehnatsevarligi ham qiyosga asos bo'lishi mumkin – Ishlamoq.
Juda qattik, butun kuchini sarflab, foyda- zararini o'ylamay mehnat qilmoq.

Eshak-aravada yantoq tashiganing tashigan edи. O'zing ham **moldek ishlading** (S. Ahmad. Jimjitlik). O'lik sahroda, badbo'y ertulalarda, kunduzi **molday ishlab**, kechasi tosh kotib **uxlaydigan** odamlarda go'zal xisga balo bormi? (A. Muxtor. Bo'ronlarda bordek halovat).

Molning ko'p suv ichib ko'p ovqat eyishi ham ichkilikka mukkasidan ketgan kishilarning fe'liga qiyoslanishi mumkin:

«Keyingi kunlarda **molday ichyapti**, bunga bir balo bo‘lgan», **deb** o‘ylab, Kesakpolvonga qattiq; tikildi (T. Malik. SHaytanat). **Bularga** tayyori kerak! Birov naqdlab qo‘ysa-da, bular **moldek bo‘kib**, eb yotaversa (U. Hoshimov. Nur borki, soya bor). Shunaqayam *ichasanni molga o‘xshab?* Shu shaytonni suvini tashlayman deb necha marta so‘z bergenman o‘zimga (B. Ismoilzoda. Shirin va armonli kunlar).

Bundan shundan xulosaga kelamizki, frazeologizmlarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilishda, uning tarkibidagi barcha komponentlar ham to’g’ridan-to’g’ri yoki so’zma-soz tarjima qilinmaydi, chunki frazeologizmlarning ma’nosи ular tarkibidagi komponentlarning ma’nosiga bog’liq emas, ya’ni, frazeologizmlarning tarkibidagi komponentlar aksariyat hollarda ko‘chma ma’noga ega.

REFERENCES

1. Salimova B. Ingliz tilida hayvon nomlarining qo’llanishi bilan kelgan frazeologik birliklarning qo’llanishiga doir/ Замонавий филология ва лингводидактика масалалари. Илмий мақолалар тўплами 2-қисм. –Самарқанд: 2015,- Б.214-215.
2. Langacker, Ronald. W: —An introduction to Cognitive Grammar, Cognitive Science 10, 1986, P. 1- 40.
3. Rooth, Anna Birgitta: —Domestic animals and wild animals as symbol and referents in the proverbs, Proverbium. Yearbook of International Proverb Scholarship 2, 1968, – P. 286-288.
4. Fillmore, Charles: —Frame semantics, en The Linguistic Society of Korea (ed.): Korea: Banshin
5. Publishing Company, 1982, – P. 113-137.Langacker, Ronald W.: Foundations of Cognitive Grammar. Volume II: Descriptive Application, Stanford: Stanford University Press. 1991, – P. 4.